

BOSHLANG'ICH SINF TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOM VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA HADISLARNING O'RNI*Saidova Gavhar Ergashovna,**Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrasini dotsenti.**<https://orcid.org/:0000-0003-3184-0769>**<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.047>*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf tarbiya darslari orqali o'quvchilarni tarbiyalashda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishda hadislarning o'rni va mohiyati ochib berilgan va hadislarning hayotiyligi misollar yordamida dalillar bilan asoslangan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, hadis, sunnat, xulqiy-axloqiy, sog'lom avlod, komil inson.

РОЛЬ ХАДИСОВ НА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УРОКАХ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА В ВОСПИТАНИИ ЗДОРОВОГО И СОВЕРШЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ*Сайдова Гавхар Эргашовна,**Бухарский государственный педагогический институт, доцент кафедры начального образования.**<https://orcid.org/:0000-0003-3184-0769>*

Аннотация: Раскрывается роль и сущность хадисов в формировании национальных и общекультурных компетенций при обучении учащихся посредством начального обучения, а также подтверждается примерами жизнеспособность хадисов.

Ключевые слова: Образование, воспитание, хадисы, сунна, нравственность, здоровое поколение, совершенный человек.

THE ROLE OF HADITHS IN EDUCATIONAL LESSONS OF THE PRIMARY CLASS IN EDUCATING A HEALTHY AND PERFECT GENERATION*Gavhar Ergashovna Saidova,**Bukhara State Pedagogical Institute Associate Professor of Primary Education Department.**<https://orcid.org/:0000-0003-3184-0769>*

Abstract: The role and essence of hadiths in the formation of national and general cultural competencies in teaching students through primary education is revealed, and the viability of hadiths is also confirmed by examples.

Key words: Education, upbringing, hadith, sunnah, morality, healthy generation, perfect person.

Kirish.Yurtimizda oilaga jamiyatning asosiy negizi sifatida qaralib, sog'lom oila muhitini yaratish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirish borasida juda ko'p xayrli ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Jumladan, davlatimiz tomonidan sog'lom avlodni shakllantirish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator qaror va dasturlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmoqda. Mustaqillikka erishganimizdan buyon Yurtboshimizning tashabbuslari bilan oila mustahkamligi va farovonligiga dolzarb masala sifatida qaralib, yellarga «Oila», «Ona va bola», «Sog'lom avlod», «Yoshlar» va «Barkamol avlod yili» degan nomlar berilib, maxsus dasturlar qabul qilinyapti.

Metodlar. Shu o'rinda ta'kidlash kerak, davlatimiz va jamiyatimiz sog'lom hamda mustahkam oila masalasida, birinchi navbatda, yangi qurilayotgan yosh oilalarga g'amxo'rlikni ustuvor vazifa deb biladi. Yosh oilalar ijtimoiy himoyaga olinib, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanadi. O'zbek xalqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu hayo, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng oldin oilada shakllanishining guvohi bo'lamiz.

Bugungi kunda ham ana shu an'analarni davom ettirib, ota-onalarimiz oilaning sog'lom iqlimi, bir-

biriga mehr va hurmat sharoitida, oila bag‘rida farzandlarini el-yurtning munosib o‘g‘il-qizlari, Vatanning haqiqiy sodiq fuqarolari bo‘lib voyaga yetishlari uchun jon kuydirishmoqda. Xalqimiz «Qush o‘z uyasida ko‘rganini qiladi», deb bejiz aytmagan, bu gapda chuqur ma’no-mazmun bor.[1]

Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, ezgu urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib etishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini unutmasligimiz kerak.

Muqaddas Islom dini ta’limotlariga tayangan holda o‘zbek oilalari o‘z farzandlariga diniy va dunyoviy bilimlar berish bilan bir qatorda, axloq-odoblarini ham chiroqli qilishga intilishyapti. Zero, Payg‘ambarimiz (solallohu alayhi va sallam) o‘zları: «Men insonlardagi axloq-odobni takomiliga etkazish uchun yuborilgan payg‘ambardirman». - deganlar. Demak, Alloh taolo ul zotni aynan shu maqsadda yer yuziga elchi qilib yuborgan, U zot bu borada hammamizga namunadirlar.

«Hadis» arab tilida «gap-so‘z» ma’nosini anglatadi. Demak, hadis deganda, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning aytgan gap-so‘zları ko‘zda tutiladi va tushuniladi.

Hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi olimni muhaddis deb ataymiz. Muhaddislar asosan, hadisni Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamdan qaysi yo‘llar bilan, kimlar orqali rivoyat qilinib, o‘zlarigacha yetib kelganini aniqlaydigan olimlardir. Ular bu ulkan mas’uliyatlari ishni amalga oshirishda juda ham aniq va ishonchli yo‘llarni tanlashgan. Mazkur uslub va ilmiy yo‘llar insoniyat tarixida umuminsoniy (gumanitar) ilmlarga asos bo‘lgan.[3]

«Sunnat» so‘zi arab tilida «tariyqat – ma’naviy yo‘l» degan ma’noni anglatadi. «Falonchining sunnati» deganda, o‘sha odamning hayotiy yo‘li tushuniladi. Shundan kelib chiqib, «Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari» deganda, u zotning tariyqatlari, yo‘llarini tushunamiz.

Sunnat muhaddislar istilohida quyidagicha ta’rif qilinadi:

«Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamdan asar bo‘lib qolgan gap, ish, taqrir, xalqiy (tana tuzilishi), axloqiy sifatlar va tarjimai holga tegishli ma’lumotlar «Sunnat» deyiladi».

O‘z-o‘zidan ma’lum bo‘lmoqdaki, Sunnat – Islom uchun, musulmonlar uchun o‘ta muhim manba. Chunki u Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom, ya’ni Alloh taolonning oxirgi va mukammal dinini o‘z hayotlarida to‘liq tatbiq qilib ko‘rsatgan muborak zotning gaplari, ishlari, ma’qullahslari, xalqiy, xulqiy sifatlari va tarjimai hollari majmuasidan iboratdir.

Shunga binoan, mo‘minlar o‘z hayotlarida yuzaga kelgan har bir muammoni hal qilishda Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamni, u zotning Sunnatlarini hakam qilib olmoqlari lozim. U zotdan chiqqan hukmni esa, ko‘ngillarida hech bir tanglik topmay amalga oshirmoqlari, o‘sha hukmga to‘laligicha taslim bo‘lmoqlari kerak. Aks holda, mo‘minlik da‘vosini qilishga aslo haqlari yo‘q. Bu Sunnatning shariatimizda Qur’ondan keyin ikkinchi o‘rindagi masdar ekanligini qattiq ta’kidlovchi dalildir.

Musulmon oilada yangi farzand dunyoga kelsa, ota – ona ilk navbatda Alloh taologa hamdu sano shukronalar aytadi. Unga insoniylik fitratiga xos chiroqli ism qo‘yadi. Halol luqma bilan oziqlantirib, barkamol bo‘lib ulg‘ayishiga umid bog’laydi. Xastalansa, atrofida parvona bo‘lib. Davolash chorasi ni izlaydi.

Abu Hurayra raziyalohu anhu rivoyat qilgan hadisi muborakda Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam shunday deydilar: «Alloh taolo har qanday dard yuborganda, uning davosini ham yuborgandir.»

Ushbu hadisga amal qilgan holda ota – ona bolasining qalbiga, jismiga malham qidiradi. Inson tadbir qiladi, Alloq taqdir qiladi. Bugungi kunda yurtimizda yosh avlodni sog‘lom o‘sirish omillaridan biri, ularni sportga jalb qilishdir. Shu bois ko‘plab sport komplekslari tashkil etildi. Murabbiy ustozlar jismoniy tarbiya asosida yoshlarning kamol topishi uchun mehnat qilishmoqda.

Hadis – islom dini ta’limotiga ko‘ra, Qur’oni karimdan keyin turadigan ikkinchi manba, Hadis to‘plamlari yaratila boshlagach, ulardan foydalangan holda Payg‘ambar alayhis salomning tabobat ilmiga oid hadislari jamlanib, «Tibbi Nabiy» (Payg‘ambar tabobati) nomli risolalar vujudga keldi. Bu kabi asarlar islom o‘lkalarida tibbiyotning rivoj topishiga musulmonlar orasida mutaxassis tabibrarning shakllanishiga yo‘l ochib berdi.

Payg‘ambar alayhis salom hadislarida bayon qilingan tibbiyot o‘gitlar, yosh avlodni ham ruhan, ham jismonan sog‘lom o‘sirish borasidagi tavsiyalar qarib bir yarim ming yil bo‘lishiga qaramay, hali hanuz o‘z qadr – qimmatini yuqotgan emas. Balki ular nafaqat musulmon tabiblar, nomusulmon mutaxassislar tomonidan ham o‘rganilmoqda.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

qo‘lyozma kitoblar fondida «Tibbi Nabiy» (Payg‘ambar tabobati) asarining 3 ta qo‘lyozma nusxasi saqlanmokda. Ular arab va fors tilida yozilgan. Ushbu asarlar asosida Janobi Payg‘ambarimizning tabibliklarini 2 qismga ajratish mumkin:

1. Payg‘ambarimizning ilohiy «dorilar» bilan tabiblik qilishlari.
2. Payg‘ambarimizning tabiiy dorilar bilan tabiblik qilishlari.

Birinchi qismga Qur‘on karimda kelgan shifo oyatlari bilan davolash kiradi. Ikkinci qismda Payg‘ambar alayhis salomning tabiatdagi o‘simpliklar, ozuqalar, inson sog‘ligi uchun foydali narsalar fazilatini bilishlari, ulardan sodda va murakkab dorilar taylorlash uslublari o‘rganiladi. Islom dini ham ruhga, ham jismga birdek diqqat qaratadi. Zero, insonning yaratilishi shuni takozo etadi. Odam xastalansa, unga qay yo‘sinda yordam berish lozimligini tabiblar bilmaydilar.

Natijalar. Kaykovusning «Qobusnomá» asarida «Farzand parvarish kilmoq zikrida» qo‘yidagi tavsiyalar beriladi: ey farzand, agar farzanding bo‘lsa, unga yaxshi ot qo‘ygin. Otadagi farzand haqlaridan biri unga yaxshi ot qo‘ymoqdir. Farzandingni oqil va mehribon tarbiyachiga topshir. Unga o‘qish yozishni ta’lim ber, so‘ngra kasb va hunar o‘rgat. Otda yurmoq, suvda suzmoqni egallasin.

Ilm va hunar o‘rganmoq eng yaxshi merosdir: Bir kishi Hazrati Ali r.aning huzurlariga kelib nasihat surabdi. Ali r.a. unga : «Kasal bo‘lsang, «voy», «uf» dema, agar tuzalsang, xuddi hech qachon o‘lmaydigandek kibrlanma, - deb o‘git beribdilar.

Komil inson –insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosi;

Komil inson Iloh bilan odamlar orasidagi vositachi, ilohiy amr, g‘ayb asrorini oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug‘ homiyidir;

Komil inson martabada Aqli kull (Aqli avval)ga teng. Alloh avval Aqli kullni, ya’ni Komil insonni yaratdi, keyin u tufayli boshqa maxluqotlar yaratildi;

Komil inson ruhi azaldan ma’lum, u Tangri taolo yaratgan eng qudratli ruhdir;

Komil inson shu sifatlari bilan mutloq ilohiy xislatlarni jamlagan kayhoniy mavjudlikdir, u agar oddiy inson suratida ko‘rinsa ham, lekin ma’nana koinotni qamrab olgan hamisha bedor va hamma narsadan xabardor bir zotdir.

Shu martabada u Allohning xalifasi bo‘la oladi.

Komil inson insonlar jamiyatni ichidan yetishib chiqadigan mo‘tabar zotdir. U azaldan martabasi aniq bo‘lgan ruh emas, balki axloqiy-ma’naviy poklanish jarayonida kamolga erishgandir, shuning uchun har bir pok axloqli, iloh sevar shaxs komillikka intilishi va bu yo‘lda nasiba olishi mumkin.

Komillikning oliy belgisi haq yo‘lidan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o‘z so‘zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga naf‘ keltirsa, yomonlarni tuz yo‘lga solsa, Haq yo‘lida fido bo‘lsa, u shuncha komildir. Islom dining muqaddas manbalari bo‘lmish qur‘on va hadislarga tayanib yozilganligidan dalolat berib turadi.

Abu Rayhon Beruniy ta’lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqeい, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlar chin ma’noda insonparvarlik va insonshunoslik zamirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg‘unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarda kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta’kidlaydi. Temurbek Xolmirza og‘li nashrnga tayyorlagan “ Nasihatnomá”(o‘g‘il va qiz bolalar odobi haqidagi risolasida ham shu haqida so‘z yuritiladi.[7]

Beruniy ta’lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning

yosh xususiyatlarini hisobga olish asosida qurilgan o‘qitish tabiatga uygunligini uqtiradi. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta’lim-tarbiysi, kamoloti bosh masala bo‘lgan.

O‘rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma’lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi.

“Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi”) asari ta’lim va tarbiya, ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlarini, usullarini, chora tadbirlarini o‘zida mujassamlashtirgan, axloq va odobga doir ma’naviy manbadir.

Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Xirandnomai Iskandariy”, “Tuhfat ul-ahror” va boshqa asarlarida ilm-ma’rifat. ta’lim-tarbiya, kasb-hunar o‘rganish, inson ijobiy fazilatlari haqidagi fikrlari ifodalangan.

Yusuf Xos Xojib ijodining bosh masalalaridan biri – komil insonni tarbiyalashdir. Adib o‘z asarlarida eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo‘lsa, shu asosda u buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariy “Ey inson farzandi, sen ilmli va adabli bo‘l. Ilm va adab senga mushfiq otangdek bo‘lsin” –degan ekan. Sharqda azaldan kitob ko‘rgan odamlarning ilmi va amali bir bo‘lgan. Ammo bugun zamonaviy bilimlarni puxta egallayotgan ayrim yoshlar adab masalasida biroz xomdek. Mayli,

zohiriy ko‘rinish mayda gapdir, ammo qalb tarbiyasi dolzarb masala. Inson hayotida ilm nechog‘lik muhim? Adab-chi?

Ilm-ma’rifat, odob-axloq masalasi kishilik jamiyatida, bashariyat hayotida hamisha alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Xalqimiz qadimdan elning ilmlni kishilariga ishongan, ularga ergashgan. Misol uchun, Islom dini bizning mintaqamizda 725–730-yillarda mahalliy aholi tomonidan qabul qilindi. Birinchi galda ilmlni kishilar din bilan tanishib, Qur’oni Karimni o‘qib, hadislarni o‘rganib, bu nafaqat muqaddas din, balki buyuk ta’limot ekanini o‘z vaqtida to‘g‘ri anglashdi, xalqqa ham to‘g‘ri tushuntira olishdi. Ziyoli, ma’rifatli insonlar imon keltirishgachgina el-ulus ham Islomni qabul qildi. Bizning baxtimiz shundaki, ilmlni ajdodlarimiz haq yo‘lni tanlay bilishdi.[8]

Xulosa. Sharqona tarbiya degani haq-nohaqning oldida bosh egib turaverish, noto‘g‘ri ishlarda ham koyish berish emasligini ham unutmasligimiz lozim. Bizning axloqimiz iyomon bilan, vijdon bilan, qat‘iy hayot pozitsiyasi bilan bog‘liq masala. O‘zbekona tarbiya odobsizni odob bilan yengishni o‘rgatadi. Ya’ni bahs-munozaralarining ham go‘zal qoidalari borki, bu g‘arbdagi arzimagan narsaga ayyuhannos solib, yoqalashish degani emas. Bizda e’tiroz bildirmoqda ham, birovni rad etmoqda ham odob bilan yondashiladi. Bunga tarixiy misollar juda ko‘p. Mualliflar ayolni “olam gultoji” deb e’tirof etar ekanlar, bu buyuklikning sirini ayollarga xos mo‘tabarlikda, halimlikda, go‘zallikda, poklikda, jozibadorlikda hayo va ibolikda, andishalikda, mehr-sahovatlikda ko‘radilar.

O. Safarov va M. Maximudovalarning “Oila ma’naviyati” kitobida oilaning mustahkamligi, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy jihatdan bog‘liqligini alohida qayd etib o‘tadilar.

Al-Buxoriy bilan bog‘liq voqeaga kelsak. Avvalambor, tarixiy voqeani to‘g‘ri talqin qilish juda muhim:

Imom Buxoriy uzoq yillik safardan so‘ng ona yurtiga qaytgach, o‘z hisobidan katta rabot, zamonaviy tilda aytganda katta majmua qurdiradi. Uning tarkibida madrasa, masjid, oshxonha, mehmonlar uchun turar joy kabi binolar bo‘ladi. Shu qurilishda hazratning o‘zлari ham bevosita qatnashadi. Ha, endi, bular imom Buxoriydek ulug‘ zot shaxsiyati oldida mayda gaplar. Xullas, shu jarayonda amir Xolid ibn Ahmad Zuhliy vakilini yuborib, Imomdan huzuriga kelishini so‘raydi. O‘sha kunlarda allomadan hadis eshitaman deb keladiganlarning oxiri yo‘q edi. Bu yoqda qurilish avjida. Xullas, Buxoriy borolmasligini, agar amir istasa kelishini, unga bajonu dil saboq berajagini aytadi. Ammo o‘rtadagi vakillar bu javobni juda qo‘pol tarzda amirga yetkazishadi. Biroz vaqt o‘tgach, Ahmad Zuhliy yana vakil jo‘natib, farzandlariga alohida ilm berishini so‘raydi. Ammo Buxoriy har bir inson kim bo‘lishidan qat‘i nazar, ilm olishga teng haqli ekanini chirolyi tushuntiradi va taklifni rad etadi. Buni qarangki, o‘rtadagi vakillar yana qo‘sib-chatib amirga javobni yetkazishadi. Shundan so‘ng Buxoriya qarshi fitnalar boshlanadi. Shu voqeа ham al-Buxoriy fe‘lidagi moddiyatdan ko‘ra ma’naviyatni ustun qo‘yish, xalq manfaati oldida xudbinlik qilmaslik kabi fazilatlarini ko‘rsatadi.

Kitob olami – boshqacha... Yoshlar, albatta, kitiob o‘qishi zarur! Mutolaa yangicha kuch, yangicha ilhom beradi. To‘g‘ri, sof ilmiy asarlar o‘qilmaydi. Mavzuning qaymog‘ini, mohiyatini ochib beradigan sodda va muxtasar shakl topishga e’tibor berishimiz kerak. Biz bundan bir necha yillar avval “Tafakkur” nashriyotida o‘nta kitobcha (yurtimizning o‘n buyuk allomasining hayoti va merosi haqida)ni bir sovg‘abop kichkina qutiga joylashtirilgan holda chop etdik. O‘n ming nusxada chiqqan edi. Kitobxonlar tomonidan yaxshi kutib olindi. Qolaversa, ma’naviyat xonalari uchun devoriy gazetalar shaklida mutafakkirlarimiz haqidagi ma’lumotlar berib borilayapti. Yaqinda yana bir xayrli ish boshlandi: “O‘zbekkino” Milliy agentligi bilan hamkorlikda mutafakkirlarimiz haqida yarim soat davom etadigan hujjatli filmlar yaratildi. Bilsangiz kerak, Mahmud az-Zamaxshariy haqida “Fasohat ilmining sultonи” nomli film ekranlarga chiqqan edi. Buyuk mutafakkir Al Hakim at-Termiziy haqida taniqli shoir va jurnalist Eshqobil Shukur senariysi asosidagi film telekanallarimizda namoyish etilib borilayapti. Ulug‘ muhaddis Abu Iso Muhammad at-Termiziy hayoti va ilmiy merosi haqida ham film yaratilayapti. Tomoshabin yarim soat vaqt ajratib, shu hujjatli filmlarni ko‘rsa, ajdodlari kimligi haqida muayyan tasavvurga ega bo‘ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

Сайдова, Г., & Каххорова, А. (2022). Xalq og ‘zaki ijodi orqali o ‘quvchilarda ma’naviy tarbiyani shakllantirish. Общество и инновации, 3(4/S), 314-317.

Сайдова, Г., & Авлиёкулова, Н. (2022). Boshlang ‘ich sinflarda o ‘quv jarayonini zamонави, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish. Общество и инновации, 3(3/S), 76-80.